



LAGOXILUS O'SIMLIGINING BIOKIMYOVIY TARKIBI VA FARMAKOLOGIK AHAMIYATI

Aminova Nafisa Narzullayevna

*Abu Ali ibn Sina nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti,
O'zbekiston*

Email: aminova.nafisa@bsmi.uz

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-6687-0064>

Annotatsiya: Zamonaviy tibbiyotda shifobaxsh o'simliklardan samarali foydalanishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, ular asosida yangicha dorivor preparatlar yaratish yo'nalishida ilmiy izlanishlar kengaymoqda. Shunday qimmatli o'simliklardan biri – lagoxilusdir. Ushbu adabiyotlar tahlili maqolasida lagoxilusning farmakologik ahamiyati, uning asosiy biologik faol moddalar va shifobaxsh ta'sirlari yoritilgan.

O'simlikning S, K va R vitaminlari, organik kislota va flavonoidlarga boyligi uning qon to'xtatuvchi, tinchlantiruvchi va gipotonik ta'sirini belgilab beradi. Shu bilan birga, lagoxilusning xalq tabobatida hamda zamonaviy klinik tadqiqotlarda qo'llanilishi haqida ham ma'lumot berilgan.

Ushbu maqola nafaqat lagoxilusning farmakologik jihatlarini, balki uning xalq tabobatidagi tarixiy o'rni, klinik sinovlar asosida isbotlangan samaradorligi va farmatsevtik sanoatda qo'llanish imkoniyatlarini ham yoritadi. Maqolada o'simlikning ekologik moslashuvchanligi, sanoat miqyosida yetishtirish istiqbollari va farmatsevtika ishlab chiqarishida qimmatli xomashyo sifatidagi ahamiyati ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Lagoxilus, Lagochilus inebrians, qon to'xtatuvchi dorilar, lagoksilin, fito-terapiya, shifobaxsh o'simliklar.*

Dolzarbligi.

Jahon miqyosida dorivor o'simliklar biologiyasi va farmakologiyasini o'rganishga qiziqish ortmoqda. Tabiiy moddalar asosidagi preparatlar ko'p hollarda kam toksik, arzon va samarali hisoblanadi.

O'zbekistonda ham an'anaviy tibbiyot merosini qayta tiklash, shifobaxsh o'simliklarni ilmiy asosda tadqiq etish va amaliyotga joriy qilish bo'yicha katta ishlar olib borilmoqda.

Lagoxilus – Lamiaceae (yatimtoji) oilasiga mansub, Markaziy Osiyoda, ayniqsa O'zbekistonda keng tarqalgan dorivor butazor hisoblanadi.

U asrlar davomida xalq tabobatida qon to'xtatuvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatilgan.

Keyingi yillarda esa uning farmakologik qimmatini ilmiy tadqiqotlar bilan ham tasdiqlanmoqda.

Shu sababli ushbu o'simlikni chuqurroq o'rganish nafaqat milliy farmatsevtika sohasi, balki jahon tibbiyoti uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha fitoterapiya yo'nalishiga talab ortib bormoqda. Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotlari ham o'simlik asosidagi preparatlarni keng qo'llashni targ'ib qilmoqda. Lagoxilusni chuqur o'rganish nafaqat mahalliy aholiga foyda keltiradi, balki xalqaro farmatsevtika bozorida ham raqobatbardosh mahsulot yaratish imkonini beradi.

Material va uslublar

Maqolada mavjud adabiyotlar tahlili, O'zbekiston Fanlar akademiyasi va Buxoro davlat tibbiyot institutida olib borilgan tadqiqotlar hamda xorijiy manbalardan olingan ma'lumotlar asos qilib olindi. Lagoxilusning morfologik tavsifi, biokimyoviy tarkibi, xalq tabobati va zamonaviy klinik tadqiqotlardagi qo'llanilishi haqidagi ma'lumotlar solishtirma tahlil etildi.

Natija

Lagoxilusning tarkibida S vitamini (44–100 mg%), K vitamini, karotin, lagoksilin (0,6–1,97%), flavonoid glikozidlar (0,67%), organik kislotalar (6–7%), tanninlar (2,58–14%), smolalar (9,66–12,42%), efir moylari (0,03%) va mikroelementlar aniqlangan.

Ushbu moddalar qon to'xtatuvchi, yallig'lanishga qarshi, antioksidant va tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Klinik tadqiqotlarda lagoxilusning bachadon va jarrohlik qon ketishlarini 87% samaradorlik bilan to'xtatishi, stress holatlarida tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatishi hamda gastroenterologik kasalliklarda tezroq tuzalishga yordam berishi isbotlangan.

Shu bilan birga, uning homiladorlik, tromboz va allergiya holatlarida ehtiyotkorlik bilan qo'llanilishi zarur.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, lagoxilus nafaqat gemostatik va sedativ ta'sirga ega, balki immunitetni mustahkamlovchi, yallig'lanishga qarshi, antiseptik hamda oshqozon-ichak faoliyatini normallashtiruvchi xususiyatlarga ham ega. Hayvonlarda olib borilgan tajribalar uning stressni kamaytiruvchi va nerv tizimini tartibga soluvchi samarali vosita ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa

Lagoxilus dorivor o'simligi o'zida boy biokimyoviy tarkib va ko'p qirrali shifobaxsh xususiyatlarni mujassam etgan.

U asrlar davomida xalq tabobatida ishlatilib kelingan va hozirda ham klinik tadqiqotlar uning farmakologik samaradorligini tasdiqlamoqda.

Qon to'xtatuvchi, tinchlantiruvchi va yallig'lanishga qarshi ta'sirlari uni tibbiyot amaliyotida qo'llash uchun muhim manbaga aylantirgan.

Shu bilan birga, lagoxilusning ekologik moslashuvchanligi uni turli iqlim sharoitlarida yetishtirish imkonini beradi, bu esa farmatsevtika sanoati uchun qimmatli xomashyo hisoblanadi.

Biroq uning keng ko'lamda qo'llanilishi uchun yana ko'plab klinik sinovlar, toksikologik baholashlar, dozalar va ta'sir mexanizmlarini chuqur o'rganish talab etiladi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Shuningdek, milliy va xalqaro standartlarga muvofiq me'yoriy bazani ishlab chiqish zarur.

Faqat shundagina lagoxilusni zamonaviy tibbiyot amaliyotida ishonchli va samarali shifobaxsh vosita sifatida joriy etish mumkin bo'ladi.

Umuman olganda, lagoxilusning biologik faol moddalar tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari uni kelajakda farmatsevtika va klinik amaliyotda keng qo'llash imkoniyatini ochadi. U xalq tabobatida asrlar davomida sinovdan o'tgan bo'lsa-da, hozirgi kunda ilmiy izlanishlar uning samaradorligini yanada isbotlamoqda. Shu boisdan, lagoxilus asosida yangi dorivor vositalar ishlab chiqish va ularni klinik amaliyotga joriy etish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akopov I.E. Krovoostanavlivayushchie rasteniya. Toshkent: Meditsina, 1977.
2. Allazov S.A. va boshq. Lagoxilus v urologicheskoy praktike. Akademicheskiy jurnal Zapadnoy Sibiri, 2015, 11(4), 74–76.
3. Derevyanko L.D. Lagoxilusterapiya pri ekssudativnyx diatezax. Krasnodar, 1962.
4. Zaynutdinov U.N. va boshq. Sravnitelnoe izuchenie dikorastushchey i kulturnoy form Lagochilus inedrians. Ximiya rast. syr'ya. 2011, №2, 189–190.
5. Karomatov I.Dj. Prostye lekarstvennye sredstva. Buxoro, 2012.
6. Lovkova M.Ya., Rabinovich A.M. Pochemu rasteniya lechat. Moskva: Nauka, 1990.
7. Mansurov U.M. Sravnitelnaya otsenka metodov obrabotki lozha adenomy posle adenomektomii prostaty. Vrach-Aspirant, 2012, 50(1), 350–354.
8. Tadjibaev T.T. Lechenie nekotoryx zabolevaniy kozhi vodnym nastoem lagoxilusa. Med. j-l Uzbekistana, 1962, 10, 54–56.
9. Sezik E. va boshq. Folk medicine in Uzbekistan. Journal of Ethnopharmacology, 2004, 92(2–3), 197–207.
10. Jiao Ying va boshq. Evaluation of Hemostatic and Anti-inflammatory Activities of Extracts from Different Lagochilus Species. Phytotherapy Research, 2015, 29(1), 22–29.

